

VOLUME-3, ISSUE-6  
ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'RNI

Xoliqova Manzura Qoyirovna-

Assistant Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Asqarova Yulduzxon Asqar qizi

-Profi Universiteti Ona tili adabiyot yo'nalishi 102 guruh 3 kurs talabasi  
tel.: +998934758834, [manzuraxoliqova37@gmail.com](mailto:manzuraxoliqova37@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish, xalqaro baholash dasturlari, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif sifatini oshirish haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda ona-tili va adabiyot fanlarida zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni qanchalik muhim ekanligi aniq yoritilib berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiya, metod, kompetent, yangilik, interfaol metod

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda jahon ta'lif standarti darajasiga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lif tizimini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Eng asosiysi, barcha darsliklar, o'quv qo'llanmalar zamonaviy innovatsion yondashuv asosida tayyorlandi. Bunda o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'limiylar, onlayn va oflays testlar, mashqlar, grammatik tushunchalarini shakllantirish, masalalar va topshiriqlarga alohida urg'u berildi. Iqtidorli bolalarning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish, iste'dodli, izlanuvchan, ijodkor pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilg'or tajribalarini ommalashtirish, ta'lif muassasalarida o'quvtarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishini ta'minlash, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida fan olimpiadalari, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" kabi ko'riktanlovlar va fan oyliklari o'tkazilib, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy izlanishi uchun juda keng imkoniyat yaratilmoqda. Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida juda katta tezlik bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lif standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston endilikda qator xalqaro baholash dasturlariga a'zo bo'lib, yoshlarning intellektual va kompetentlilik darajasini bilishga, kerak bo'lsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi va layoqatliligin oshirishni ko'zlamoqda. O'quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun har bir ona tili va adabiyot darslararo integratsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z kasbini ustasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetuk mutaxassislari bilan har oyda uchrashuvlar tashkil etish, ular haqida o'quvchilarga so'zlab, ona tili va adabiyot fanlari bilan bog'liqligini ko'rsatish, o'quvchilarning

**VOLUME-3, ISSUE-6**

savollarga hayotiy misollar keltirish yo'li bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o'qish, o'rganish kerakligi haqida fikr vamaslaxat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, baxs-munozaralar va master klasslar tashkil etish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada mukammal darajada orttiradi. Ota-onalarda farzandini o'qishga bo'lgan qiziqishini yuksak ma'naviyatli, bilimli, zukkokomil inson etib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur. Ona tili va adabiyot fanlarini o'zlashtirishda o'quvchilar va ustozlar zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal darajada o'zlashtirishi kerak. Shu jumladan dars jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta'limi vositalar, barcha fanlar singari ona tili va adabiyot uchun elektron ta'limi resurslar va ularga qo'yiladigan talablar va bu borada chet el tajribasi haqida to'liq ma'lumot olish kerak. Axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni yuqori darajada sifatli tashkil etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni , ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qilish kerak.

Shu bilan bir qatorda nafaqat ona tili va adabiyotda , balki barcha fanlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'mni aniq va sezilarli darajada ko'rinish qoldi.

Nafaqat ona tili va adabiyot fanini o'qitishda balki, ta'limda zamonaviy innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusidagi maqsadlar , izlanishlar, tajribalarga undashdir.

**Adabiyotlar:**

1. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi. T. : 2010.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.
4. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O 'zbekistonda ilm-fan va ta 'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3)
4. Turdaliev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). Chemical and biogeochemical features of desert soils of the central Fergana. Agriculture
5. Турдалиев А. Т., Аскаров К. А., Мирзаев Ф. А. У. Морфологические особенности орошаемых почв Центральной Ферганы //Почвы и окружающая среда. – 2019. – Т.